

**KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA TA'LIM SOHASIDAGI HUQUQIY
KAFOLATLAR**
**CONSTITUTIONAL REFORMS AND LEGAL GUARANTEES IN THE FIELD OF
EDUCATION**
**КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ В ОБЛАСТИ
ОБРАЗОВАНИЯ**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy iqtisodiy fanlar
fakulteti Tarix yo`nalishi 1-bosqich talabasi
Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi
Muhammadjonovamashhura4@gmail.com
Ilmiy rahbar: t.f.n., dot. Shoir Nurillayeva
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17667738>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyaviy normalari asosida zamonaviy sifatli ta'lim tizimini yaratishning huquqiy, tashkiliy va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha davlat siyosati, innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim texnologiyalari hamda pedagogik transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari sifatli ta'limni ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida sifatli ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Annotation: This article analyzes the legal, organizational and methodological foundations of creating a modern quality education system based on the current Constitutional norms of the Republic of Uzbekistan. The study covers state policy on improving the quality of education, innovative approaches, digital educational technologies and priority areas of pedagogical transformation. The results of the study show that constitutional guarantees play an important role in ensuring quality education. In conclusion, practical proposals are given to improve the quality education system.

Аннотация: В статье анализируются правовые, организационные и методические основы создания современной системы качественного образования на основе действующих норм Конституции Республики Узбекистан. В исследовании рассматриваются государственная политика по повышению качества образования, инновационные подходы, цифровые образовательные технологии и приоритетные направления педагогической трансформации. Результаты исследования показывают, что конституционные гарантии играют важную роль в обеспечении качественного образования. В заключении даны практические предложения по совершенствованию системы качественного образования.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy islohotlar, ta'lim tizimi, huquqiy kafolatlar, davlat siyosati, pedagog maqomi, raqamli ta'lim, inkluziv ta'lim, ta'lim sifati.

Keywords: Constitutional reforms, education system, legal guarantees, state policy, status of a teacher, digital education, inclusive education, quality of education.

Ключевые слова: Конституционные реформы, система образования, правовые гарантии, государственная политика, статус педагога, цифровое образование, инклюзивное образование, качество образования.

KIRISH: O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatning barcha sohalarini, jumladan ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha muhim normalar mustahkamlandi. Ta'lim sohasidagi huquqiy kafolatlar davlatning ijtimoiy siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lib, aholining barcha qatlamlariga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – konstitutsiyaviy islohotlarning ta'lim sohasiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha bilimlarining 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Sababi, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga aylangan.

Jahonda umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, innovatsion maktabda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, interaktiv dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron resurslar yaratish, tajribalarga asoslangan ta'limni (experiential-learning) joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kopengagen Deklaratsiyasida umumta'lim fanlaridan ta'lim xizmatlarini vizuallashtirish va ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, tahliliy natijalarni umumlashtirish hamda xulosalash orqali innovatsionmaktabda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda[3].

Yangi Konstitutsiyada ta'limga oid qator normalar mustahkamlangan. Masalan: Har bir fuqaroga sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlandi. Majburiy umumiy ta'lim davlat tomonidan bepul ta'minlanishi belgilandi. Oliy ta'limning bosqichma-bosqich kengayishi davlat siyosatiga aylantirildi. Davlat ta'lim tizimini doimiy ravishda rivojlantirish majburiyatini oldi. Bundan tashqari ta'lim sohasida ta'limning uzluksizligi (maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy), ta'limning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi (byudjet kvotalari, stipendiyalar, grantlar), pedagoglarning maqomi va ularning mehnatini himoya qilish, ta'lim tashkilotlarining mustaqilligi, akademik erkinlik, inkluziv ta'lim kafolatlari huquqiy konstitutsion darajada belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 30-dekabr kuni matbuotda e'lon qilingan "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[4] respublikamizda kadrlar tayyorlash va ta'limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta'limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan 25 yillik mustaqillik davrida mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib,

mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo'lmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni yosh avlodning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi[2].

Loyihalashga bo'lgan asosiy ehtiyoj "rivojlanish bosqichi"ni amalga oshirilishi kerak bo'lganda, yaxlit tizimni (uning alohida elementlari emas, balki butun tizim) bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kerak bo'lganda paydo bo'ladi, chunki chinakam rivojlantiruvchi ta'lim faqat rivojlantiruvchi ta'lim tizimining o'zida amalga oshirilishi mumkin. Ta'limning yagona tizimidan soha tashkilotlariga o'tish o'z-o'zidan, evolyusion tarzda, tizim ichidagi alohida takomillashtirishlar hisobiga amalga oshirilmaydi[1].

XULOSA: Konstitutsiyaviy islohotlar O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish, uning uzluksizligini ta'minlash va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyat yaratishga xizmat qilmoqda. Yangi Konstitutsiyada ta'limga oid huquqiy kafolatlar mustahkamlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur tadqiqot natijalari ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida konstitutsion normalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, yangi konstitutsiyaviy normalar ta'lim tizimining boshqaruvini, sifat nazorati va shaffofligini kuchaytirib, xususi ta'lim muassasalarining rivojlanishi uchun ham qulay sharoit yaratadi. Bu esa ta'limning raqobatbardoshligini oshirib, mamlakatda malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Azamov X. Rivojlantiruvchi ta'lim sohasini loyihalash asoslari. Toshkent. 2023. 717 b.
2. Kushakova G, Nizomova S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Toshkent. 2023-yil. 3-son.
3. Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida. Toshkent. 2023-yil. 717 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori